

SPORT DISKURSIDA AXLOQIY BAHOLASH, XULQ ATVOR KUTILMALARI VA INTERAKTIV USLUBLAR

Karimova Fotima Kamoliddin qizi

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
fakultetlararo Chet tillar kafedrası o'qituvchisi.
f.karimova@cspu.uz*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot sport sohasidagi nutq va muloqot jarayonlarida axloqiy mezonlarning tutgan o'рни, sportchilar hamda boshqa ishtirokchilarning xulq-atvoriga nisbatan mavjud talab va kutishlarni o'rganishga bag'ishlanadi. Ishda sport muhitida shakllanadigan halollik, hurmat va adolat kabi tamoyillar tahlil qilinadi hamda ular ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: sport nutqi, axloqiy mezonlar, xulq-atvor talablari, sport etikasi, interaktiv yondashuv, ijtimoiy munosabatlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida talabalarni muntazam jismoniy faollikka jalb etish muhim vazifalardan biriga aylandi. An'anaviy sport mashg'ulotlari ko'pincha yetarlicha qiziqarli bo'lmagani sababli, talabalar faolligi past bo'lib qolmoqda. Shu bois mashg'ulotlarni interaktiv shaklda, o'yin elementlari hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish talabalar motivatsiyasini oshirish, stressni kamaytirish va ularning jismoniy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. 2022-yil 4-martdagi PQ-160-son qarori hamda 2022-yil 11-apreldagi PF-87-son farmoni yoshlar o'rtasida sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan muhim hujjatlar hisoblanadi. Ushbu normativ-huquqiy asoslar oliy ta'lim muassasalarida sport infratuzilmasini takomillashtirish va sport faoliyatini kengaytirishni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlaydi. Bugungi kunda yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni sportga keng jalb qilish hamda jismoniy faollik darajasini oshirish global va mahalliy sog'liq muammolari, xususan stress va ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar fonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda bu yo'nalishda aniq strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim muassasalarida sportni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining ko'pligi, ularning ehtiyoj va qiziqishlarining turlicha ekanligi individual yondashuvni talab etadi. Shu sababli, interaktiv, moslashuvchan va talaba markazli sport-pedagogik tizimlarni joriy etish zarur. Bunday yondashuvlar ilmiy-metodik jihatdan asoslangan holda tizimli ravishda tatbiq etilsa, oliy

ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi — sog'lom, har tomonlama rivojlangan va faol yoshlarni tarbiyalashga to'liq mos keladi. Sport diskursi bugungi kunda nafaqat jismoniy faoliyatni ifodalovchi tushuncha, balki keng ijtimoiy va madaniy mazmunga ega bo'lgan kommunikativ maydon sifatida qaraladi. Unda sportchilar, murabbiylar, hakamlar va muxlislar o'rtasidagi turli shakldagi muloqotlar mujassam bo'ladi. Bu jarayonda nafaqat o'yin natijalari, balki ishtirokchilarning xulqi, nutqi va umumiy muomala madaniyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli sport diskursida axloqiy baholash va xulq-atvor me'yorlari alohida o'rin tutadi. Avvalo, axloqiy baholash sport muhitida ishtirokchilarning harakatlariga beriladigan ijtimoiy va ma'naviy munosabatni anglatadi.

Sportchi maydonda o'zini qanday tutishi, qoidalarga amal qilishi, raqibga bo'lgan hurmati orqali baholanadi. Halollik, adolat va hurmat kabi qadriyatlar sportning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, o'yinda qoidabuzarlik qilish yoki hakam qaroriga nisbatan keskin norozilik bildirish salbiy baholansa, aksincha, halol o'yin namoyish etish va raqibga hurmat bilan munosabatda bo'lish ijobiy qabul qilinadi. Shu tariqa sport diskursi orqali jamiyatda qabul qilingan axloqiy mezonlar mustahkamlanadi. Shu bilan birga, sportda ma'lum xulq-atvor kutilmalari mavjud bo'lib, ular ishtirokchilarning o'zini tutish standartlarini belgilaydi. Sportchilardan intizomli bo'lish, hissiyotlarini nazorat qila olish va jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish talab etiladi. Murabbiylar esa o'z navbatida adolatli va mas'uliyatli bo'lishi, sportchilarga nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham yo'l-yo'riq ko'rsatishi lozim. Muxlislar uchun ham muayyan me'yorlar mavjud bo'lib, ular sport jarayonida hurmat va bag'rikenglikni saqlashni talab qiladi. Bu kutilmalar sport muhitida sog'lom va ijobiy atmosfera shakllanishiga xizmat qiladi. Sport diskursining yana bir muhim jihati interaktivlik bilan bog'liq. Zamonaviy sport muhitida muloqot bir yo'nalishda emas, balki ko'p tomonlama tarzda amalga oshadi. Murabbiy va sportchi o'rtasidagi bevosita suhbatlar, o'yin davomida beriladigan ko'rsatmalar, tana harakatlari orqali ifodalanadigan signallar — bularning barchasi interaktiv uslublarga kiradi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar sport diskursini yanada kengaytirib, muxlislar va sportchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish imkonini yaratmoqda. Bu esa sportni nafaqat tomosha, balki faol muloqot maydoniga aylantiradi. Umuman olganda, sport diskursida axloqiy baholash, xulq-atvor kutilmalari va interaktiv uslublari o'zaro uzviy bog'liqdir. Ular birgalikda sportning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi, undagi insoniy qadriyatlarni namoyon etadi va jamiyatda ijobiy xulq me'yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois sportni faqat natija yoki musobaqa sifatida emas, balki axloqiy va kommunikativ tizim sifatida ham o'rganish muhimdir.

Bugungi kunda global axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimiga, ayniqsa sport yo'nalishiga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodning sportga oid bilim va tarbiya madaniyatini rivojlantirish, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy faollikka bo'lgan qiziqishni oshirish zamonaviy pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biridir. Jismoniy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali ta'limiy yondashuv barcha qatlam vakillarini, jumladan, jismoniy faollikka kam jalb etilgan, motivatsiyasi past, tortinchoq, muloqotda qiyinchilikka duch keladigan yoki nogironligi mavjud shaxslarni ham o'z ichiga olishi zarur. Bu esa pedagoglardan individual yondashuvni qo'llash, empatiya bilan ishlash va doimiy qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu kabi ta'limiy yondashuvlar orqali o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, jismoniy faoliyatga nisbatan ijobiy qarash shakllanadi va ular inklyuziv muhitda erkin rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Arabboyev Q.T. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslan), Toshkent: TIU nashriyoti, 2023.
2. Sultanova N.Ya. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'quv qo'llanma). Buxoro, 2023.
2. Kerimov, F. A. Jismoniy tarbiya va sport nazariya va metodika Toshkent, 2023.
3. Luminita Georgescu. Sport fanlari va jismoniy tarbiya. 3-jildlik to'plam. EOLSS nashriyoti, 2021.
4. Demirhan, Gryasettin va Bulca, Yeşim. Oliy ta'limda jismoniy tarbiya, EOLSS nashriyoti, 2020.
5. O'Brien, D., Corbett, B., Gowthorp, L., & Ferkins, L. Sportda strategik boshqaruv. Routledge, 2019.
6. Sultonov R. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2022.
7. Karimova, L. Oliy ta'limda sport mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi, Toshkent